

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XALILOV SIROJIDDIN SHERALI O‘G‘LI

**MILLIY TURIZM TARMOG‘INING RAQOBAT USTUNLIKLARINI
RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHLARI VA STRATEGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

UO‘K: 338.48.:577.4 (575.1)

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) по экономическим наукам

Content of dissertation abstract of doctor of science (DSc) in economics

Xalilov Sirojiddin Sherali o‘g‘li

Milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo‘nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish.....3

Халилов Сирожиддин Шерали угли

Совершенствование направлений и стратегий развития конкурентных преимуществ национального туристского сектора.....31

Khalilov Sirojiddin Sherali ugli

Improvement of directions and strategies for developing competitive advantages of the national tourist sector59

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....63

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

XALILOV SIROJIDDIN SHERALI O'G'LI

**MILLIY TURIZM TARMOG'INING RAQOBAT USTUNLIKLARINI
RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI VA STRATEGIYALARINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.DSc/Iqt401 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tsue.uz) va «Ziyonet» axborot-ta’lim portali (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi: **Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: **Safarov Baxodirxon Shaxriyorovich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ibragimov Nutfillo Salimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Astanakulov Olim Tashtemirovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Andijon davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «__» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: tdiu@tdiu.uz

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi, 49. Tel.: (99871) 239-28-72.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «__» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «__» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.P. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., professor

A.A. Eshtayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Global iqtisodiy munosabatlar tizimida turizm jahonning yetakchi davlatlari daromadining salmoqli qismini tashkil qilmoqda. Milliy turizm tarmog‘i yangi ish o‘rinlarini yaratishning rag‘batlantiruvchi kuchi sifatida dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. “Bugungi kunda jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizi, ish bilan bandlikning 9 foizi, jami eksportning 7 foizi, xizmatlar eksportining esa 30 foizi turizm sohasi hissasiga to‘g‘ri keladi”¹. Bu raqamlar turizmning iqtisodiy rivojlanishdagi muhim o‘rnidan dalolat beradi. Turizm tarmog‘ining istiqboli jahon mamlakatlari aholisi ijtimoiy-iqtisodiy farovonligini izchil oshirib borishning muqobil yo‘nalishlaridan biri sifatida yuqori baholanmoqda.

Butunjahon iqtisodiy kompleksida turizm tarmog‘ida yaratilgan xizmatlar yoqilg‘i sanoati, kimyo sanoati, oziq-ovqat hamda avtomobil sanoati eksportidan so‘ng beshinchi o‘rinni egallaganligi uning iqtisodiyot rivojlanish sur‘atlariga sezilarli darajada ta‘sir ko‘rsatayotganligidan dalolat beradi. Xorijiy davlatlar o‘z milliy turizm mahsulotini diversifikatsiya qilish asosida turizm xizmatlari eksporti hajmini muntazam oshirib borishga jiddiy e‘tibor qarata boshladi. Turizm sohasida olib borilayotgan ilmiy-amaliy tadqiqot ishlarida ham jahon olimlari ayni masalalarning metodologik asoslari, marketing strategiyalari va investitsion boshqaruv jihatlariga alohida urg‘u bermoqda. Milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo‘nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish masalalari ham xorijiy tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

O‘zbekistonda milliy turizm tarmog‘ini manzilli qo‘llab-quvvatlash, turizm tarmog‘ida yaratilgan xizmatlarni innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish, uning samaradorligini oshirishga davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida 2025-yilgacha “... yurtimizga tashrif buyuradigan xorijiy sayyohlar sonini 7 million nafarga, turizm eksportidan keladigan yillik daromadni esa 2 milliard dollarga yetkazish lozimligi ...”² ta‘kidlandi. Belgilab berilgan ushbu amaliy vazifalarning bajarilishi milliy turizm tarmog‘ini barqaror sur‘atlar bilan izchil rivojlantirish, raqobat strategiyalarini amaliyotga joriy etishning muhim yo‘nalishlarini ishlab chiqish maqsadida ayni masalalarga tegishli dasturlar tayyorlashga asos yaratadigan mukammal ilmiy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjudligini ko‘rsatmoqda. Shu tufayli milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo‘nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish algoritmini belgilab olishga bag‘ishlangan mavzu dolzarb ilmiy yo‘nalishlardan biri ekanligidan dalolat beradi.

Dissertatsiya tadqiqoti natijalari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda PF-4861-son “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini

¹ UNWTO. Tourism Highlights: 2022 Edition, p. 3 // <http://www.unwto.org>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2020-yil 29-dekabr.

rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmonlarida, 2018-yil 6-fevraldagi PQ-3509-son "Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorida hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³. Milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirishning yo'nalish va strategiyalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Stanford University, Princeton University, Harvard University (AQSh), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), University of Munster (Germaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Tailors University (Malayziya), Gazi University (Turkiya), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent filiali, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Samarqand davlat universiteti, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universitetida olib borilmoqda.

Milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi ilmiy natijalar olingan: turizm faoliyatining tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmi ishlab chiqilgan, milliy turizm tarmog'i boshqaruvini optimallashtirish uchun zarur tashkiliy o'zgarishlarning ta'siri baholangan (Stanford University, Harvard University – AQSh; University of Munster – Germaniya); milliy turizm tarmog'ida olinadigan daromadlar va YaIM hajmining o'zgarish tendensiyalari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan (Gazi University – Turkiya), milliy turizm tarmog'ining mamlakat va uning alohida hududlari iqtisodiyotiga ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri, nazariy va uslubiy jihatlarini asoslangan (Samarqand iqtisodiyot va servis instituti, Samarqand davlat universiteti, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti).

Jahonda milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirishning yo'nalish va strategiyalarini takomillashtirish bo'yicha qator, jumladan, quyidagi sohalarda ilmiy izlanishlar olib borilmoqda: milliy turizm tarmog'ini zamonaviy

³Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi Stenford University, Princeton University (AQSh), Harvard University (AQSh), Cambridge University (Buyuk Britaniya), Universidad de Las Palmas de Gran Canaria (Ispaniya), Korea Development Institute (Janubiy Koreya), Gazi University (Turkiya), G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti va Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti veb-sahifalari va boshqa manbalar asosida yoritilgan.

marketing vositalarini qo'llash orqali takomillashtirish; milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini aniqlash bo'yicha empirik tadqiqotlar; milliy turizm tarmog'ida innovatsion tavsifdagi raqamli platformalarini ishga tushirish; turistlarni jalb etish borasida innovatsion strategiyalarni rivojlantirish va hokazo.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Milliy turizm tarmog'i raqobat ustunliklarini rivojlantirish strategiyalarini takomillashtirishning nazariy jihatlarini A.Alonso, A.Ogle, D.Buhalis, S.Smit, V.Azar, A.Aleksandrova, V.Gulyaev, Ye.Jilsov, I.Zorin, N.Zayseva, D.Ismayev, N.Mironenko va boshqa xorijlik olimlarning asarlarida tadqiq etilgan⁴. Ayniqsa, milliy turizm tarmog'ining ilmiy-nazariy masalalarini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan V.I.Azar, V.A.Kvartalnovning⁵ ilmiy tadqiqot ishlari e'tiborga molik. Milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirishning yo'nalish va strategiyalarini takomillashtirish muammolari K.X.Abduraxmonov, M.E.Po'latov, M.R.Boltabayev, N.T.Tuxliyev, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, M.M.Muxammedov, M.T.Alimova, A.A.Eshtayev, A.N.Norchayev, O.H.Xamidov, M.T.Aliyeva, U.R.Matyoqubov, S.S.Ro'ziyev, N.E.Ibadullayev singari O'zbekiston olim va mutaxassislarining asarlarida ham yoritilgan⁶.

⁴ Alonso, A.D., & Ogle, A. (2010). Tourism and hospitality small and medium enterprises and environmental sustainability. *Management Research Review*, 33.; Ogle, A. (2012). Environmental performance measurement of tourism accommodations in the pilgrimage urban areas: The case of the Holy City of Mashhad, Iran. *Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 35, 514–522.; Buhalis, D., 2003, eTourism: Information Technology for strategic tourism management, Pearson.; Smith, S. (2010) *Practical Tourism Research (CABI)*; Azar V.I. Экономика и организация туризма. – М.: Аспект-Пресс, 2003. - 439 с.; Aleksandrova A.Yu. Международный туризм: Учеб. пособие для вузов. – М., 2001.; Gulyaev V.G. Туризм: экономика и социальное развитие. М.: Финансы и статистика, 2003; Jilsov Y.N. (ред) Экономика общественного сектора, Учебник / Под ред. П.В. Савченко, И.А. Погосова, Е.Н. Жильцова. – М.: ИНФРА-М, 2010. - 763 с. - (Высшее образование).; Zorin I.V., Kaverina T.P., Kvartalnov V.A. Туризм как вид деятельности, Учебник. – М.: Финансы и статистика. 2005. – 288 с.; Zayseva N.A. Менеджмент в социально-культурном сервисе и туризме, Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: Издательский центр «Академия», 2003. - 224 с.; Ismayev D.K. Основы стратегии и планирования маркетинга в иностранном туризме. – М., 1994.; Krujalin V.I., Mironenko N.S. и др. География туризма. Учебник. Н. В. Зигерн-Корн, Н. В. Шабалина. – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. – 336 с.

⁵ Azar V.I. Экономика и организация туризма. – М.: Экономика, 2003. – 322 с.; Kvartalnov V.A. Менеджмент и маркетинг в социальнокультурной сфере. Учебное пособие. 2-е изд. – СПб.: Книжный дом, 2003. – 644 с.;

Абдурахманов К.Х. Менеджмент туризма. Учебное пособие. – Т.: Филиал ФГБОУ ВПО «РЭУ им. Плеханова Г.В.» в г. Ташкенте, 2013. – 248 с.; Po'latov M.E. va boshqalar. Global iqtisodiy rivojlanish (turizm iqtisodiyoti) – “Fan va texnologiya” - Toshkent, 2018. 308 b.; Boltaboev M.R., Tuxliev I.S., Safarov B.Sh., Abduxamidov S.A. “Turizm: nazariya va amaliyot” fanidan elektron darslik.- T., 2017; Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Менеджмент и организация бизнеса в туризме Узбекистана. – Т.: Гос.науч.изд. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi», 2006. - 386 с; Pardaev M., Atabaev R. Turizm asoslari. – Samarqand, SamISI. 2006.- 74 b.; Tuxliev I. Turizm asoslari. – Samarqand: SamISI. 2010. -271 b., To'xliev I., Qudratov F., Pardaev M. Turizmni rejalashtirish. Darslik. – Т.: Iqtisod va moliya, 2008.- 262 b.; Muxammedov M., Raxmatov F. Turizm sohasida bozor munosabatlarining shakllanishi va uning tarmoq samaradorligi ko'rsatkichlariga ta'siri. //Servis va turizm: Boshqarish va rivojlantirish muammolari. Xalkaro anjuman materiallari. – Samarqand, 2007.; Aliyeva M.T.. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlarini: DSc dissertatsiyasi avtoreferati. 2019 – 78 bet; Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari: doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. – Samarqand: SamISI, 2017. – 96 b.; Eshtaev A.A. Globallashuv sharoitida turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi (O'zbekiston Respublikasi turizm tarmog'i misolida). Doctor of science dissertatsiyasi avtoreferati - Samarqand, 2019, Norchayev A. Xalqaro turizmni rivojlantirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri. Iqt. fan. nomz. ...diss. 2004. -120 b.; Hamidov O. O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. I.f.d. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2017; Matyakubov U. Ekologik vaziyatni inobatga olib turizm samaradorligini oshirish yunalishlari va istiqbollari (Xorazm viloyati misolida). Iqt. fan. nomz. ...diss. - Samarqand, 2011; Ro'ziyev S. O'zbekiston madaniy turizm bozori va uning istiqbollari. Iqt. fan. ...diss. – Toshkent, 2009; Ibadullayev N. Turistik resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand viloyati misolida). Iqt. fan. ...diss. avtoref. – Samarqand, 2010.

Hozirgi kunda O‘zbekistonda milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklarini rivojlantirishning yo‘nalish va strategiyalarini takomillashtirishni ilmiy jihatdan asoslash, milliy turizm tarmog‘ining alohida tarkibiy qismlari sifatida hududlar salohiyatidan samarali foydalanishni ta‘minlovchi maqbul tizimni yaratish zarurati obyektiv tus olmoqda. Mavjud tadqiqotlarda ushbu masalalar bo‘yicha ayrim nazariy va metodologik natijalar olingan bo‘lsa-da, ularda milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklari kompleks yoritilmagan. Bu esa, o‘z o‘rnida, dolzarb masala hisoblanib, bu sohadagi ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish davr talabi bo‘lib qolmoqda. Aynan shu holat mazkur dissertatsiya ishi mavzusini tanlash, uning maqsadi va vazifalarini belgilashga asos sifatida xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Bozor raqobati sharoitida real sektor tarmoqlari hamda korxonalar rivojlanishining ilmiy-metodologik asosini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekiston milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklarini rivojlantirishning yo‘nalish va strategiyalarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy turizm tarmog‘ida “raqobat muhiti” va “raqobat ustunliklari” kategoriyalari namoyon bo‘lishining nazariy asoslarini tadqiq etish;

kirish turizmi yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash maqsadida yoshlar faol dam olish zonasini tashkil etish bo‘yicha boshqaruv tuzilmasini ilmiy jihatdan asoslash;

turizm sohasida transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo‘nalishlarni kengaytirishni nazarda tutgan holda yo‘lovchilar tashish sohasida O‘zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqaviy transport “xabi”ga aylantirishni ta‘minlash taklifini ishlab chiqish;

turizmning istiqbolli turlari (ekologik, etnografik, gastronomik, sport, sog‘lomlashtirish, industrial, ishbilarmonlik)ni barqaror rivojlantirishning tashkiliy mexanizmini raqobatbardosh turizm mahsulotlari, xususan, hududlarda tematik turizm zonalarini yaratish orqali takomillashtirish yo‘llarini ko‘rsatib berish;

pozitsiyalashga ustuvorlik berish orqali turizm oqimini yo‘naltiruvchi tashqi bozorlarda milliy turizm mahsulotini ilgari surish bo‘yicha strategiyani ishlab chiqish uslubiyotini takomillashtirish zaruratini asoslash;

turizm salohiyatiga ega hududlarga investorlarni jalb etishga qaratilgan “Investor show room”, shuningdek, turistlarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan axborot markazlarini (“Visitor center”) tashkil qilish tartibini ishlab chiqish;

Surxondaryo viloyatida “Oltin uchburchak” turizm sxemasini amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini turizm resurslaridan optimal foydalanish va turizm sohasida hudud salohiyatini yuzaga chiqarish maqsadlarini ko‘zlagan holda takomillashtirish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston milliy turizm tarmog‘i hamda hududiy turizm zonalarini faoliyati tanlangan.

Tadqiqotning predmeti milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklarini yuzaga chiqarish jarayonida vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat.

Tadqiqot usullari. Dissertatsiya ishida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy tahlil, SMART-tahlil, induksiya va deduksiya, qiyoslash, ekspert baholash, monografik kuzatuv, statistik guruhlash va iqtisodiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko‘ra “milliy turizm tarmog‘ida raqobat muhiti va raqobat ustunliklari” tushunchalarining iqtisodiy mazmuni turizm korxonalarining maqbul narx belgilash, tanlangan segment miqyosida taniqlilikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan manfaatlar to‘qnashuvi natijasida vujudga keluvchi holat hamda biznes subyektlari orasida keskin ajralib turuvchi raqobat xususiyatlari jamlanmasi nuqtai nazaridan takomillashtirilgan;

Surxondaryo viloyatida turizm yo‘nalishlarini hududiy raqobat ustunliklariga ko‘ra diversifikatsiyalash hamda qayta maqsadli integratsiyalash asosida “ekoturizm”, “agroturizm”, “gastronomik turizm” singari istiqbolli turlarga ixtisoslashgan Boysun, Sherobod va Sariosiyo kichik tematik turizm zonalari yaratish taklifi asoslangan;

qishloq va etnografik turlar (an‘anaviy turmush tarzi, hunarmandchilik, milliy taomlar tayyorlash texnologiyasi) doirasida sayyohlarni qabul qilish istagi va imkoniyatiga ega fermerlar uchun namunaviy “turizm mahallasi” tipidagi uy-joy komplekslari qurish orqali milliy turizm tarmog‘i salohiyatidan foydalanishni kengaytirish taklifi asoslangan;

rekreatsion ko‘llar hududida ishbilarmonlik tadbirlarini (MICE tourism) o‘tkazishga mo‘ljallangan kongress-xoll, rekreatsiya va dam olish maskanlari, investorlarni jalb etish imkonini kengaytiruvchi “Investor show room” hamda turistlarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan axborot markazlarini (“Visitor center”) tashkil qilish taklifi asoslangan;

Surxondaryo viloyatida turizm sohasida hudud salohiyatini yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan “Oltin uchburchak” turizm sxemasini amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi tabaqalashgan imtiyozlar joriy qilish va ekskursiya dasturlari bazasini yaratishga mas‘ul tuzilma sifatida turizm ekspertlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi konsilium faoliyatini yo‘lga qo‘yish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

turizm sohasida transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo‘nalishlarni kengaytirishni nazarda tutgan holda yo‘lovchilar tashish sohasida O‘zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqaviy transport “xabi”ga aylantirishni ta‘minlash taklifi xalqaro parvozlar bo‘yicha O‘zbekistonning tarixiy shaharlariga reyslarning geografiyasini kengaytirishga xizmat qilgan;

raqobatbardosh turizm mahsulotlari, xususan, hududlarda tematik turizm zonalari yaratish orqali turizmning istiqbolli turlari (ekologik, etnografik, gastronomik, sport, sog‘lomlashtirish, industrial, ishbilarmonlik)ni barqaror rivojlantirishning tashkiliy mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha taklifdan foydalanish turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta‘sirini kamaytirish imkonini bergan;

turistlar oqimini yoʻnaltiruvchi tashqi bozorlarda milliy turizm mahsulotini ilgari surish boʻyicha strategiyani ishlab chiqish uslubiyotini pozitsiyalashga ustuvorlik berish asosida takomillashtirish boʻyicha taklifdan foydalanish natijasida turistlar oqimini yoʻnaltiruvchi tashqi bozorlarda milliy turizm mahsulotini ilgari surish boʻyicha strategiyalar global trendlar taʼsirini eʼtiborga olgan holda takomillashtirilgan;

rekreatsion koʻllar hududida ishbilarmonlik tadbirlarini (MICE tourism) oʻtkazishga moʻljallangan kongress-xoll, rekreatsiya va dam olish maskanlari, investorlarni jalb etishga qaratilgan “Investor show room”, shuningdek, turistlarga xizmat koʻrsatishga moʻljallangan axborot markazlarini (“Visitor center”) tashkil qilish tartibini ishlab chiqish boʻyicha taklifdan foydalanish natijasida rekreatsion koʻllar hududini potensial turistlar guruhlari oʻrtasida targʻib etish boʻyicha marketing strategiyasini (targetli marketing) olib borish mexanizmi takomillashtirilgan;

turizm resurslaridan optimal foydalanish va turizm sohasida hudud salohiyatini yuzaga chiqarishga yoʻnaltirilgan Surxondaryo viloyatida “Oltin uchburchak” turizm sxemasini amalga oshirish iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish boʻyicha taklifdan foydalanish milliy turizm tarmogʻida hududlar ulushini mutanosib taqsimlashga asos boʻlgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Dissertatsiya tadqiqotida olingan ilmiy natijalarning ishonchliligi ishda qoʻllanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, axborot bazasining rasmiy manbalardan olingani, SWOT-tahlil va sotsiologik soʻrovnomalarning maxsus talablar asosida oʻtkazilgani hamda xulosa, taklif va tavsiyalarning amalda sinovdan oʻtgani, shuningdek, olingan natijalardan amaliyotda foydalanilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati dissertatsiya natijalarini qoʻllash orqali milliy turizm tarmogʻida turizm xizmatlari eksportini diversifikatsiya qilishga yoʻnaltirilgan aniq tavsiyalarning nazariy va metodik asoslarini shakllantirish imkoniyati mavjudligida ifodalanadi. Bu tavsiyalar majmui milliy turizm tarmogʻida faoliyat yurituvchi biznes subyektlari boshqaruv samaradorligini oshirish va shu asosda turistlar talabini toʻliq qondirish sharoitini tugʻdiruvchi boshqaruv tizimini joriy qilish imkoniyatini yaratadi. Tadqiqot natijalaridan oliy va oʻrta maxsus kasb taʼlimi tizimida turizm va xizmatlar sohasiga iqtisodchilar, menejerlar, marketologlar, turoperatorlarni tayyorlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqotning nazariy-ilmiy xulosalari va metodik tavsiyalaridan Oʻzbekiston Respublikasi Turizm qoʻmitasi faoliyatida va 2019-2025-yillarda Oʻzbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasida belgilangan vazifalar ijrosini taʼminlashda foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Milliy turizm tarmogʻining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yoʻnalishlari va strategiyalarini takomillashtirish boʻyicha ishlab chiqilgan ilmiy-uslubiy va amaliy tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga koʻra “milliy turizm tarmogʻida raqobat muhiti va raqobat ustunliklari” tushunchalarining iqtisodiy mazmunining turizm korxonalarida maqbul narx belgilash, tanlangan segment miqyosida taniqlilikni taʼminlashga yoʻnaltirilgan manfaatlar toʻqnashuvi natijasida vujudga keluvchi

holat hamda biznes subyektlari orasida keskin ajralib turuvchi raqobat xususiyatlari jamlanmasi nuqtai nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy materiallardan oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun mo'ljallangan "Turizmda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish" nomli darslikni tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 18-avgustdagi 356-sonli buyrug'i). Mazkur ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi oliy oliy ta'lim muassasalari talabalarida "milliy turizm tarmog'ida raqobat muhiti va raqobat ustunliklari" tushunchalarining iqtisodiy mazmuni bo'yicha yanada kengroq nazariy bilim va ko'nikmalar hosil qilish uchun uslubiy asos bo'lgan;

Surxondaryo viloyatida turizm yo'nalishlarini hududiy raqobat ustunliklari asosida diversifikatsiyalash hamda qayta maqsadli integratsiyalash asosida "ekoturizm", "agroturizm", "gastronomik turizm" singari istiqbolli turlarga ixtisoslashgan Boysun, Sherobod va Sariosiyo kichik tematik turizm zonalari yaratish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi 332-son qarori asosida ishlab chiqilgan kompleks chora-tadbirlar dasturining 7-bandida o'z aksini topgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2021-yil 18-noyabrdagi 03-17-01/10649-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta'sirini kamaytirish hamda turizm tarmog'ini hududiy boshqarish samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

qishloq va etnografik turlar (an'anaviy turmush tarzi, hunarmandchilik, milliy taomlar tayyorlash texnologiyasi) doirasida sayyohlarni qabul qilish istagi va imkoniyatiga ega fermerlar uchun namunaviy "turizm mahallasi" tipidagi uy-joy komplekslari qurish orqali milliy turizm tarmog'i salohiyatidan foydalanishni kengaytirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan tasdiqlangan 2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishda qo'llanilgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2021-yil 18-noyabrdagi 03-17-01/10649-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida kiruvchi va ichki turistlar oqimiga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan muqobil tashkiliy tuzilmalar faoliyati takomillashgan;

rekreatsion ko'llar hududida ishbilarmonlik tadbirlarini (MICE tourism) o'tkazishga mo'ljallangan kongress-xoll, rekreatsiya va dam olish maskanlari, investorlarni jalb etish imkonini kengaytiruvchi "Investor show room" hamda turistlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan axborot markazlarini ("Visitor center") tashkil qilish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 14-iyundagi 368-son "O'zbekiston Respublikasida suvda dam olish va plyaj turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va To'dako'l rekreatsion ko'llar hududida 2021-2025-yillarda turizmni rivojlantirish konsepsiyasining 1-bobi 1.6-bandini hamda 5-bobi 5.5-, 5.6-, 5.7-bandlarini ishlab chiqishda qo'llanilgan

(O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2021-yil 18-noyabrdagi 03-17-01/10649-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi rekreatsion ko‘llar hududini potensial turistlar guruhlari o‘rtasida targ‘ib qilish bo‘yicha marketing strategiyasini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga xizmat qilgan;

Surxondaryo viloyatida turizm sohasida hudud salohiyatini yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan “Oltin uchburchak” turizm sxemasini amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmini tabaqalashgan imtiyozlar joriy qilish va ekskursiya dasturlari bazasini yaratishga mas’ul tuzilma sifatida turizm ekspertlaridan iborat muvofiqlashtiruvchi konsilium faoliyatini yo‘lga qo‘yish asosida takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 27-maydagi 332-son “Surxondaryo viloyatining turizm salohiyatidan samarali foydalanish va uni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan Surxondaryo viloyatida “Oltin uchburchak” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqishda qo‘llanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Turizm va sport vazirligining 2021-yil 18-noyabrdagi 03-17-01/10649-son ma’lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy qilinishi natijasida milliy turizm tarmog‘ida hududlar ulushini mutanosib taqsimlash imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 10 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 23 ta ilmiy ish, shu jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 12 ta maqola, jumladan, 10 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 4 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, uning hajmi 212 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o‘tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, mavzuning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi borasidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Milliy turizm tarmog‘i raqobat ustunliklarining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida raqobat ustunliklari rivojlanishining genezisi, ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va obyektiv zarurligi asoslangan holda ayni yo‘nalishda olib borilgan ilmiy izlanishlar tahlili keltirilgan.

Milliy turizm tarmog‘i mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Milliy turizm tarmog‘ining davlat tomonidan izchil qo‘llab-quvvatlanishi yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, davlat byudjeti daromadlar bazasi ortishi, xalqaro miqyosda mamlakatning ijobiy imiji va madaniyatlararo aloqalar mustahkamlanishiga olib keladi. Turizm XX asr fenomeni sifatida tan olingan hamda yangi yuz yillikda ushbu tarmoq taraqqiyotini jadallashtirish davlatlar iqtisodiy siyosatining yetakchi tayanch nuqtalaridan biri bo‘lib qolmoqda. Milliy turizm tarmog‘idagi rivojlanish sur‘atlarini rag‘batlantiruvchi omillardan biri, shubhasiz, raqobat muhitidir. Raqobat muhitining shakllanishi moddiy-ashyoviy buyumlar ishlab chiqarish sanoatida ham, xizmatlar sektorida ham rivojlanishning yangi imkoniyatlarini yuzaga keltiradi.

Raqobat muhiti shakllanmagan sharoitda tovar va xizmatlar sifati tushib ketishi, tannarx ortishi, mehnat unumdorligi pasayishi singari salbiy oqibatlar kuzatila boshlaydi. Shunday ekan, raqobat muhiti global xo‘jalik tizimi, milliy iqtisodiyot, alohida ma‘muriy hududlar rivojlanishi va korxonalar moliyaviy barqarorligini ta‘minlashda muhim ahamiyatga ega. Bu iqtisodiy kategoriya to‘g‘risida ilmiy mulohazalarni davom ettirishdan avval nazariy jihatdan asoslangan mualliflik ta‘rifini ishlab chiqish maqsadga muvofiq.

Milliy turizm tarmog‘ida raqobat muhiti deganda erkin bozor iqtisodiyoti tamoyillari amal qilgan sharoitda turizm korxonalarining maqbul narx belgilash, sifatli xizmat ko‘rsatish, tanlangan segment miqyosida taniqlilikni ta‘minlashga yo‘naltirilgan manfaatlar to‘qnashuvi natijasida vujudga keuvchi holat tushuniladi. Xuddi shunday, **milliy turizm tarmog‘ida raqobat ustunliklari** deganda mamlakat yoki uning muayyan hududida turizm korxonasining tanlangan bozor segmentida faoliyat yurituvchi biznes subyektlari orasida keskin ajralib turuvchi noyob xususiyatlar jamlanmasi tushuniladi.

Milliy turizm tarmog‘i raqobat muhiti nafaqat yagona segment doirasidagi iste‘molchilar auditoriyasi bilan ishlayotgan turizm korxonalarini o‘rtasidagi o‘zaro manfaatlar to‘qnashuvidan, balki boshqa yana bir qancha tarkibiy elementlardan iborat. Ularning o‘zaro aloqadorligi va bilvosita kechuvchi iqtisodiy munosabatlari pirovard natijada raqobat muhtining samarali amal qilishini ta‘minlaydi. Tarkibiy elementlarning bir butunligi va ularning o‘zaro ta‘sirida raqobat muhiti doimiy takomillashib boradi. Raqobat muhitining asosiy elementlari sirasiga davlatning raqobatga oid siyosati, turdosh (funksional o‘xshashliklarga ega) xizmatlarni taklif qiluvchi korxonalar, asosiy xizmat turlarini taqdim etuvchi korxonalar (servis provayderlari), turistlar, raqobatlashuvchi subyekt sifatida milliy turizm tarmog‘iga kirib kelishdagi to‘siqlar kiradi (1-jadval).

O‘zbekiston Respublikasida raqobatga oid iqtisodiy munosabatlar 2012-yil 6-yanvarda qabul qilingan O‘RQ-319-son “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi raqobat sohasidagi vakolatli organ sifatida belgilangan. Mazkur qo‘mita korxonalarining raqobatga qarshi harakatlarini, nosog‘lom raqobatini cheklash va

ularning oldini olishga, davlat boshqaruvi organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlarining g‘ayriqonuniy harakatlariga yo‘l qo‘ymaslikka qaratilgan davlat siyosatini izchil amalga oshiradi⁷. Davlatning raqobatga oid siyosati natijasida sof raqobat muhitini markazlashgan holda tartibga solish va nazorat qilish imkoniyati yuzaga keladi. Nosog‘lom raqobat kurashi holatlari aniqlangan taqdirda, bunday harkatlarni sodir etgan korxonalariga nisbatan huquqiy ta’sir choralari ham ko‘riladi. O‘z o‘rnida, davlatning raqobatga oid siyosati natijadorligi ustidan parlament nazorati o‘rnatilgan.

1-jadval

Milliy turizm tarmog‘ida raqobat muhitini tashkil etuvchi elementlar⁸

№	Raqobat muhitini tashkil etuvchi element	Alohida olingan elementning umumiy raqobat muhitidagi o‘rni
1.	Davlatning raqobatga oid siyosati	- raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlashga oid huquqiy bazani yaratadi; - monopoliyani cheklash sohasida qat’iy davlat siyosati yuritilishini ta’minlaydi
2.	Funksional o‘xshashliklarga ega xizmatlarni taklif qiluvchi korxonalar	- xizmatlar narxi oshib ketishining oldini oladi; - turistlar uchun sifat ko‘rsatkichi yuqori bo‘lgan xizmatlar taqdim etilishini rag‘batlantiradi.
3.	Ta’minotchi korxonalar	- turoperatorning takliflar differentsiatsiyasini ta’minlaydi; - turizm mahsuloti renovatsiyasiga (tuzilmaviy yangilanishiga) olib keladi
4.	Turistlar	- asosiy xizmat turlarini taqdim etuvchi korxonalarni bozor tadqiqotlarini amalga oshirishga undaydi; - turoperatorlarda innovatsiyalarni o‘zlashtirishga rag‘bat uyg‘otadi
5.	Raqobatlashuvchi subyekt sifatida milliy turizm tarmog‘iga kirib kelishdagi to‘siqlar	- asosiy xizmat turlarini taqdim etuvchi korxonalardan o‘z resurslari va imkoniyatlarini obyektiv baholashni talab qiladi; - raqobatchilarning moliyaviy va ayrim rasmiy tuzilmalarning ma’muriy bosimiga nisbatan preventiv choralar ko‘rishni taqozo etadi

Ta’kidlab o‘tilganidek, raqobat muhitini qo‘llab-quvvatlashga oid huquqiy bazani yaratish davlatning raqobatga oid siyosati asosini tashkil etadi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, “Raqobat to‘g‘risida”gi qonun, Prezidentning raqobat muhitini takomillashtirishga tegishli farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari ayni sohaning huquqiy bazasini shakllantiradi. Mazkur me’yoriy-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasi miqyosida qat’iy ijrosini nazorat qilish raqobat muhitiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni cheklaydi.

Milliy turizm tarmog‘ida raqobat ustunliklariga ta’sir etuvchi omillar turizm korxonasidagi menejerlar korpusining ta’sir imkoniyatlariga ko‘ra ichki va tashqi

⁷ O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 6-yanvarda qabul qilingan O‘RQ-319-son “Raqobat to‘g‘risida”gi qonuni 9-moddasi.

⁸ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

omillarga ajratiladi. Milliy turizm tarmog‘ida raqobat ustunliklariga ta’sir etuvchi omillar menejerlar korpusi boshqaruv qarorlari orqali o‘zgarishlarga yuz tutsa, bunday omillar ichki omillar sifatida tasniflanadi. Aksincha, milliy turizm tarmog‘ida raqobat ustunliklariga ta’sir etuvchi omillar menejerlar korpusi boshqaruv qarorlari orqali o‘zgarishlarga yuz tutmasa, bunday omillar tashqi omillar sifatida tasniflanadi (2-jadval).

2-jadval

Milliy turizm tarmog‘ida raqobat ustunliklariga ta’sir etuvchi ichki va tashqi omillar muvozanati⁹

Milliy turizm tarmog‘ida raqobat ustunliklariga ta’sir etuvchi asosiy omillar	
Tashqi omillar	Ichki omillar
turizm xizmatlari xalqaro savdosiga oid davlat siyosati	turizm korxonasi tashkiliy tuzilmasi
mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi	xizmat ko‘rsatish jarayonining tartibga solinishi va boshqaruv hisobining yuritilishi
asosiy turistlar oqimini jo‘natuvchi mamlakatlarga nisbatan qo‘llaniluvchi ma‘muriy tartib-taomillar	xizmat ko‘rsatuvchi personal malakasi
fiskal va monetar siyosat	ichki boshqaruvning axborot va me‘yoriy-uslubiy bazasi yaratilganligi
bojxona siyosati, shu bilan bog‘liq holda import poshlinalari va kvotalari	xizmatlar sifatini nazorat qilish tizimi mavjudligi
mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotidagi pozitsiyasi	strategik boshqaruv tizimi yo‘lga qo‘yilganligi
davlatning xizmatlarni sertifikatlash tizimi	turizm mahsuloti realizatsiyasida dillerlik tarmog‘ining shakllantirilganligi
iste‘molchilar huquqlarining kafolatli himoyasi	ichki axborot almashinuvida konfidensiallik ta‘minlanganligi
milliy turizm tarmog‘ining bozor sig‘imi va unda hukm suruvchi raqobat muhiti	turizm mahsulotlari realizatsiyasida onlayn platformalardan foydalangan holda elektron tijorat tizimi yaratilganligi
noyob texnologik yangiliklarga ega turizm mahsulotlarini ilgari suruvchi raqobatchilarning paydo bo‘lishi	tanlangan bozor segmentiga differentsiatsiya qilingan turizm mahsulotini ilgari surish salohiyati

Milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklari mamlakatga kiruvchi xorijiy turistlar oqimini ko‘paytirishning muhim manbai hisoblanadi. Milliy turizm tarmog‘i raqobat ustunliklari orqali potensial turistlar mamlakat to‘g‘risida qo‘shimcha ma‘lumotlarga ega bo‘ladi hamda shu mamlakatga sayohat qilishni ko‘zda tutuvchi turizm mahsulotlarini xarid qiladi. Milliy turizm tarmog‘i raqobat ustunliklarining aniqlanishi potensial turistlar uchun noyob assortimentdagi turizm mahsulotlarini taklif qilish imkonini beradi. Turizm mahsulotlari reklama kampaniyasining tijorat muvaffaqiyati ham bevosita raqobat ustunliklari negiziga quriladi.

Dissertatsiyaning “**Milliy turizm tarmog‘i raqobat ustunliklarini yuzaga chiqarishning metodologik jihatlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida

⁹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston turizm salohiyatini baholashga uslubiy yondashuvlar boshqaruvning yangi tashkiliy tuzilmalarini tadqiq etish asosida o‘rganilgan. Milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklari yuzaga kelishi sinergetik samaraga erishish imkonini beruvchi manfaatdor tomonlar imkoniyatlarini yagona missiya atrofida birlashtirishni talab etadi.

Milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklariga ega bo‘lishi, avvalo, yo‘lovchi tashishda transport logistikasini takomillashtirish, tashqi va ichki to‘g‘ridan-to‘g‘ri reyslarni kengaytirish, Markaziy Osiyoda mintaqaviy transport bog‘lamalarini rivojlantirish bilan bog‘liq. Buning natijasida O‘zbekistonning yuqori turizm salohiyatiga ega tarixiy shaharlariga transport qatnovlarining geografiyasi kengayadi. Zotan, turizm mahsulotini iste‘molchilarga taqdim etishda yo‘lovchi tashish asosiy xizmat turlari sirasiga kiradi. Global xizmatlar bozorida milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklarini yuzaga chiqarish ketma-ketligini “Optimal yo‘lovchi tashish – qulay joylashuv – sifatli ovqatlanish – malakali ekskursiya” tartibida belgilash mumkin.

Mazkur mintaqada joylashgan har bir davlat sivilizatsion taraqqiyot uyg‘unligi, umumiy diniy-madaniy qadriyatlar, tarixiy rivojlanish bosqichlarining o‘xshashligiga ega. Shuni e‘tiborga olib, Markaziy Osiyo mintaqasida umumiy transport koridori bilan qamrab olingan yagona turizm magistrali barpo etish kiruvchi turistlar oqimini ko‘paytirishda yuqori samarali yechim bo‘la oladi. Yo‘lovchi aviatashuvlari va integratsiyalashgan avtomagistral yo‘nalishlarida Markaziy Osiyo transport xabini yaratish bu mintaqaga kiruvchi xorijiy turistlar oqimi muntazamligini ta‘minlaydi hamda mintaqaning global xizmatlar bozoridagi mavqei ortishiga olib keladi. Mazkur transport xabi innovatsion tashkiliy-boshqaruv tuzilmasi sifatida mintaqada davlatlarining yo‘lovchi tashish sohasidagi salohiyatidan muvozanatli foydalanishda qo‘shimcha imkoniyatlarni vujudga keltiradi. Bir so‘z bilan aytganda, milliy turizm tarmog‘ida turizm mahsulotlari raqobatbardoshligi kategoriyasi iqtisodiy tadqiqotlarning mustaqil yo‘nalishidir. Ayni mavzuga oid ko‘plab dissertatsiyalar, ilmiy monografiyalar, maqolalar e‘lon qilingan.

Mualliflik yondashuvlarini umumlashtirib ta‘kidlash joizki, milliy turizm tarmog‘ida turizm mahsulotlari raqobatbardoshligi quyidagi omillarga bog‘liq:


birinchidan, turizm mahsulotlari tarkibida jamlangan tashish, joylashtirish, ovqatlantirish va ekskursiya xizmatlarining sifati;

ikkinchidan, turizm mahsulotlarining xizmatlar bozoridagi sotuv narxi va narx diapazoniga ko‘ra talab elastikligi;

uchinchidan, reklama kampaniyasining original tashkil etilganligi va brend kapitali qiymati.

Milliy turizm mahsulotlari raqobatbardoshligini ta‘minlovchi omillar triadasi elementlari alohida-alohida emas, aksincha kombinatsiyalangan ko‘rinishda tijorat muvaffaqiyatini kafolatlay oladi. Milliy turizm tarmog‘ini tartibga solishga mas‘ul vakolatli davlat organi turizm mahsulotlari raqobatbardoshligini ta‘minlash choralari muvofiqlashtirib boradi. Milliy turizm mahsulotlari raqobatbardoshligi hududlar turizm salohiyatini to‘laqonli ishga solish bilan ham baholanadi. Shu

ma'noda, hududlarda tematik turizm zonalarini yaratish orqali turizmning istiqbolli turlarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy mexanizmini quyidagicha ifodalash o'rinlidir (1-rasm).



1-rasm. Hududlarda kichik tematik turizm zonalarini yaratish orqali turizmning istiqbolli turlarini barqaror rivojlantirishning tashkiliy mexanizmi¹⁰

Turizm salohiyati yuqori bo'lgan mamlakat hududlarida tematik turizm zonalarini yaratish kiruvchi va ichki turistlar oqimini mintaqalararo mutanosib taqsimlashga xizmat qiladi. Shuningdek, Surxondaryo viloyatida kichik turizm zonalarini (Boysun, Sherobod, Sariosiyo) yaratishdan avval istiqbolda rivojlanish dinamikasini ta'minlovchi ichki zaxiralar ham aniqlab olinishi zarur. Hududning istiqbolda rivojlanish dinamikasini ta'minlovchi ichki zaxiralar tarkibini:

iqtisodiy faol aholi soni va uning servis sohasida kasbiy malakalarni o'zlashtirishga layoqatli qismi;

turizm infratuzilmasi obyektlarini barpo etishning jami kapital sig'imi va bunga investitsiya manbalarini yo'naltirish imkoniyati;

asosiy transport magistrallariga nisbatan joylashuvdagi qulaylik darajasi;


tabiiy-iqlim sharoitining mo'tadilligi;

mahalliy aholining iqtisodiy holati, ishbilarmonlik layoqati va ishsizlikka barham berish dasturlarining ijrosi tashkil etadi.

Bundan tashqari, qishloq va etnografik turlar (an'anaviy turmush tarzi, hunarmandchilik, milliy taomlar tayyorlash texnologiyasi) doirasida sayyohlarni

¹⁰ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

qabul qilish istagiga va imkoniyatiga ega bo‘lgan fermerlar uchun namunaviy “turistik mahalla” tipidagi uy-joy komplekslari qurish orqali milliy turizm tarmog‘i salohiyatidan foydalanishni kengaytirish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda (2-rasm).




2-rasm. “Turistik mahalla” tipidagi uy-joy komplekslari qurish orqali milliy turizm tarmog‘i salohiyatidan foydalanishni kengaytirish sxemasi¹¹

O‘zbekistonning, ayniqsa, sharqiy va shimoliy mintaqalarida turistik mahallalar sonini ko‘paytirish salohiyati mavjud. “Turistik mahalla” tipidagi uy-joy komplekslari qurish orqali milliy turizm tarmog‘i salohiyatidan foydalanishni kengaytirish ham ijtimoiy, ham iqtisodiy jihatdan ijobiy samaralarga erishish

¹¹ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

imkonini beradi. Jumladan, muqobili yo‘q “mahalla” tuzilmasiga urg‘u berish milliy turizm tarmog‘iga tegishli turistik mahsulotlarni maqsadli pozitsiyalash uchun qulay sharoitni vujudga keltiradi.

O‘z navbatida, turizm tarmog‘i raqobat ustunliklaridan foydalanishning xorij tajribasini umumlashtirgan holda ta’kidlash joizki, global xizmatlar bozorida mustahkam o‘rin egallash uchun milliy turizm mahsulotining raqobat ustunliklarini aniqlash birlamchi e’tibortalab masaladir. Milliy turizm mahsulotining raqobatchi subyektlar taklifidan ajralib turuvchi tomonlarini yuzaga chiqarish hamda potensial turistlar ongida ularning mustahkam o‘rin olishiga erishish yuzasidan amalga oshiriluvchi izchil chora-tadbirlar majmui milliy turizm tarmog‘ini global xizmatlar bozorida pozitsiyalash deyiladi (3-rasm).



3-rasm. Pozitsiyalashga ustuvorlik berish asosida tashqi bozorlarda milliy turizm mahsulotini ilgari surish strategiyasini ishlab chiqishning asosiy yo'nalishlari¹²

O‘zbekiston milliy turizm tarmog‘ini global xizmatlar bozorida pozitsiyalash bir nechta afzalliklarga ega, xususan:

¹² Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

milliy turizm mahsulotini raqobatchi subyektlar takliflar portfeli bilan solishtirma o'rganish natijasida asosiy ustunliklar va zaif tomonlar yaqqol yuzaga chiqadi;

benchmarking tahlillariga tayangan holda global xizmatlar bozorida liderlik maqomini saqlab kelayotgan davlatlar milliy turizm mahsulotini potensial turistlarga taqdim etish amaliyotidagi ilg'or tajribalar umumlashiriladi, ular yo'l qo'ygan kamchiliklar to'g'risida xulosalar yasaladi;

milliy turizm tarmog'iga tegishli raqobat ustunliklari guruhlanadi, ulardan targ'ibot aksiyalarini va reklama strategiyasini tayyorlashda faol foydalaniladi;

global xizmatlar bozorida potensial turistlar oqimi uchun raqobat kurashi keskin tus olgan bir paytda milliy turizm mahsulotining unikal xususiyatlari to'g'risida xolis va jozibali axborot tarqatiladi;

turizm tashrifi manzilini belgilashda vujudga keluvchi tanlov jarayonida O'zbekiston xavfsiz, mehmondo'st va noyob turizm destinatsiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston milliy turizm tarmog'ini samarali rivojlantirish tendensiyalari”** deb nomlangan uchinchi bobida ayni sohada rivojlanish sur'ati tadqiq qilingan. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida xizmatlar sohasining o'rni tobora mustahkamlanib borayotganida, aholining real daromadlari hajmi oshayotganida, hududlarning mutanosib rivojlanishini ta'minlashda xizmatlar sohasi, jumladan, turizm tarmog'i va infratuzilmasi hal qiluvchi ahamiyat kasb etayotganida, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar sifat nuqtai nazaridan o'zgarayotganida islohotlar natijasini ko'rish mumkin (3-jadval).

3-jadval

Milliy turizm tarmog'i rivojlanishini aks ettirgan asosiy ko'rsatkichlar dinamikasi¹³

Ko'rsatkichlar	Yillar kesimida							
	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Yalpi ichki mahsulot, mlrd. so'm	221350,9	255421,9	317476,4	424728,7	529391,4	602193,0	734587,7	763083,6
Xizmat ko'rsatish, mlrd. so'm	78530,4	97050,0	118811,0	150889,8	193697,8	219978,5	284165,4	314071,5
Xizmatlar sohasining YaIMdagi hissasi, %	35,5	37,9	37,4	37,1	35,5	36,5	38,7	39,8
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, mlrd. so'm	44810,4	51232,0	72155,2	124231,3	195927,3	210195,1	239552,6	279350,1
Aholi jonboshiga xizmatlar hajmi, ming so'm	2509,0	3047,3	3668,3	4578,5	5 768,2	6426,1	8138,8	8942,5
Kichik biznes subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar, mlrd. so'm	47269,6	61346,2	69212,7	84433,4	103106,6	114052,7	144812,7	198613,7

Yuqoridagilarni e'tiborga olib, milliy turizm tarmog'ining rivojlanish sur'atlarini aks ettiruvchi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarish dinamikasi o'rganildi. O'rganilgan yillar kesimida xizmatlar sohasining mamlakat

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi ulushi keskin ko'tarilishlarsiz oshib borgan. Xususan, xizmatlar sohasining mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi ulushi 2014-yilda 36,4 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-yilga kelib, 37,4 foizga ko'tarilgan. Yuqumli virusli infeksiyalarning keng tarqalishi oqibatida vujudga kelgan pandemik inqiroz ta'sirida xizmatlar sohasining mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi ulushi 2019-2020-yillarda ma'lum darajada kamaydi. Bunga pandemik lokdaunlar joriy etilganligi, sanitariya cheklovlarining kuchayganligi singari omillar ta'sir etgan. Jahon xo'jalik tizimidagi 2021-yildan kuzatilgan jonlanishlar O'zbekiston milliy iqtisodiyotida ham qayd etildi. 2021-yil yakunlariga ko'ra, xizmatlar sohasining mamlakat yalpi ichki mahsuloti tarkibidagi ulushi 38,7 foizga yetdi.

O'zbekiston xizmatlar bozorida iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sish sur'atlari foiz shaklida aniqroq o'z ifodasini topadi. 4- jadvalda yillar kesimida milliy iqtisodiyot tarkibida xizmatlar sohasining o'sish sur'ati va uning foizlardagi aksi tasvirlangan (4-jadval).

4-jadval

O'zbekiston xizmatlar bozorida iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmining o'sish sur'ati (o'tgan yilga nisbatan, % da)¹⁴

Ko'rsatkichlar	2014-y.	2015-y.	2016-y.	2017-y.	2018-y.	2019-y.	2020-y.	2021-y.	2022-y.
Xizmatlar jami	114,2	113,4	114,7	110,7	108,9	113,2	103,0	119,5	116,3
axborot va aloqa sohasidagi xizmatlari	127,6	116,0	114,6	121,3	115,9	108,3	123,8	126,4	128,8
moliya xizmatlari	132,1	130,6	119,8	136,5	121,5	147,0	125,6	128,0	131,7
transport xizmatlari	104,6	104,3	107,8	109,9	104,5	106,7	91,4	115,7	111,8
shu jumladan: avtotransport xizmati	116,7	115,9	117,2	102,1	101,6	105,1	101,4	115,5	107,5
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	116,5	119,0	121,1	112,1	107,0	107,3	80,3	132,3	122,3
savdo xizmatlari	115,7	118,5	120,5	100,3	104,9	107,4	103,8	112,3	108,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	119,9	118,5	117,5	106,6	107,9	104,7	90,0	123,1	110,0
ta'lim xizmatlari	109,1	111,2	107,8	125,6	110,5	109,5	101,0	130,8	114,1
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	116,3	117,2	122,2	116,9	113,4	114,7	94,8	128,5	113,4

O'zbekiston milliy turizm tarmog'ining asosiy infratuzilmasini tashkil etgan vaqtincha yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmining yillar kesimidagi o'zgarish

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida ishlab chiqilgan.

dinamikasini foizlarda ko‘rib chiqish o‘rinlidir. 2014-yilda vaqtincha yashash va ovqatlanish xizmatlarining o‘tgan yilga nisbatan o‘shish sur‘ati 116,5 foizdan iborat bo‘lgan. Mos ravishda, bu ko‘rsatkich 2017-yilda 112,1 foizni, 2021-yilda 132,3 foizni, 2022-yil yakunlariga ko‘ra 122,3 foizni tashkil etgan. Ko‘rinib turibdiki, mamlakatga kiruvchi turistlar oqimining ko‘payishi va ichki turizmning barqaror rivojlanishi makroiqtisodiy miqyosda xizmatlar sohasida vaqtincha yashash va ovqatlanish xizmatlari ulushining ortishiga turtki berdi.

Yuqorida keltirilgan statistik raqamlarni tadqiq etish orqali 5-jadvalda milliy turizm tarmog‘ini kelgusida rivojlantirish strategik missiyasini belgilab olishning SMART-tahlili o‘z aksini topgan (5-jadval).

Milliy turizm tarmog‘ini kelgusida rivojlantirish strategik missiyasini belgilab olishning SMART-tahlili konyunkturali bozor vaziyatiga obyektiv baholashning muqobil metodlaridan g aniq yo‘nalishlarga egaligi, asosiy maqsad va vazifalarning bir-birini takrorlamasligi, ichki zaxira va iqtisodiy o‘shish imkoniyatlariga uyg‘unligi bilan farq qiladi.

5-jadval

Milliy turizm tarmog‘ini kelgusida rivojlantirish strategik missiyasining SMART-tahlili¹⁵

<u>S</u> ("specific" – maxsus yo‘naltirilganlik)	<u>M</u> ("measurable" – iqtisodiy o‘lchovlilik)
<ul style="list-style-type: none"> • Milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish va turizm mahsulotlarini gorizontal diversifikatsiyalash orqali kiruvchi turistlar oqimini barqaror jalb qilish 	<ul style="list-style-type: none"> • 2028-yilga qadar mamlakatga xorijiy turistlar tashrifini har yili 2 milliondan izchil oshirib borish; • mamlakat bo‘ylab 50 ta tematik turizm zonalarini yaratish; • turizm alternativ yo‘nalishlarining har birida 100 tadan turmarshrut kataloglari elektron versiyasini ishlab chiqish.
<u>A</u> ("achievable" – erishish imkoniyatlarining realligi)	<u>R</u> ("related" – o‘zaro bog‘liqlikka ega bo‘lish)
<ul style="list-style-type: none"> • hududlarning iqtisodiy o‘shish zaxiralarini ratsional ishga solish; • mahalliy aholi tadbirkorlik tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash manzilligini ta‘minlash; • tashqi investitsiya resurslarini faol o‘zlashtirish choralarini kuchaytirish 	<ul style="list-style-type: none"> • milliy turizm tarmog‘ining transport infratuzilmasini takomillashtirish strategiyasini tasdiqlash; • agrosanoat kompleksini rivojlantirish konsepsiyasini milliy turizm tarmog‘ining asosiy ustuvorliklari bilan integratsiyalash
<u>T</u> ("times-bound" – ijro muddatlari chegaralarining o‘rnatilganligi)	
<ul style="list-style-type: none"> • milliy turizm tarmog‘ini kelgusi besh yilda rivojlantirish strategik missiyasidan kelib chiquvchi amaliy vazifalar ijrosini ta‘minlashning chorakliklarga taqsimlangan "time line" (bajarilish muddatlari ketma-ketligi) vektorini shakllantirish. 	

Dissertatsiyaning **“Milliy turizm tarmog‘i raqobat ustunliklarini rivojlantirish strategiyalari”** deb nomlangan to‘rtinchi bobida barqaror

¹⁵ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.


o'sishni ta'minlashning muqobil yo'nalishlari o'rganilgan. Milliy turizm tarmog'ida infratuzilmani modernizatsiyalashda investitsion faollikni rag'batlantirish yo'llarini belgilash tobora dolzarblik kasb etib bormoqda. Buning uchun hududiy turizm kompleksida resurs salohiyati yuqori bo'lgan destinatsiyalarga diqqat qaratish lozim. Xususan, rekreatsion ko'llar hududida xalqaro miqyosdagi ishbilarmonlik tadbirlarini o'tkazishga mo'ljallangan kongress-xoll, rekreatsiya va dam olish maskanlari, investorlarni jalb etishga qaratilgan "Investor show room", shuningdek, turistlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan axborot markazlarini ("Visitor center") tashkil qilishning takomillashgan tartibini joriy etish maqsadga muvofiq. Bu taklifdan foydalanish natijasida rekreatsion ko'llar hududini potensial turistlar guruhlari o'rtasida targ'ib qilish bo'yicha marketing strategiyasi va targeting konsepsiyasini amalga oshirish mexanizmi takomillashadi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston o'z gidrom turizm resurslari jozibadorligi bilan mintaqaning boshqa davlatlaridan ajralib turadi. Mamlakat hududlarida daryolar, ko'llar, sharsharalar, shifobaxsh buloqlar mavjud. Ulardan mamlakatga kiruvchi va ichki turistlar oqimiga xizmat ko'rsatishda foydalanish mumkin. Global xizmatlar bozorida milliy turizm mahsulotining raqobat ustunliklarini bosqichma-bosqich rivojlantirib borish ham aynan shunga bog'liq. Zotan, fitom, litom, gidrom va antronom singari xilma-xil turizm resurslarini o'z ichiga olgan marshrutlar doirasida xizmat ko'rsatishni yo'lga qo'yish raqobat kurashi keskin tus olgan davrning keskin talabi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jumladan, rekreatsion ko'llar hududida xalqaro miqyosdagi ishbilarmonlik tadbirlarini o'tkazishga mo'ljallangan kongress-xoll, rekreatsiya va dam olish maskanlari, investorlarni jalb qilishga qaratilgan "Investor show room", shuningdek, turistlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan axborot markazlarini ("Visitor center") tashkil qilishning takomillashgan tartibini quyidagicha ifodalash o'rinli. Milliy turizm tarmog'ining infratuzilma obyektlariga investorlarni jalb etishga qaratilgan "Investor show room" va turistlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan axborot markazlarini tashkil qilishning takomillashgan tartibi 7 bosqichdan iborat amaliy sa'y-harakatlar ketma-ketligini ro'yobga chiqarish evaziga qaror topadi (4-rasm).

O'zbekistonning gidrom turizm resurslarini qamrab olgan marshrutlarni ishlab chiqish hamda ushbu marshrutlar asosida innovatsion tavsifdagi turizm mahsulotlarini yaratish lozim. Shunday chora-tadbirlar amalga oshirilgan taqdirda, milliy turizm mahsuloti gidrom turizm resurslarini qamrab olgan innovatsion tavsifdagi turizm mahsulotlarini yaratish orqali diversifikatsiya qilinadi. Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi va To'dako'l rekreatsion ko'llar hududida xalqaro miqyosdagi ishbilarmonlik tadbirlarini o'tkazishga mo'ljallangan kongress-xoll, rekreatsiya va dam olish maskanlari, investorlarni jalb etishga qaratilgan "Investor show room", shuningdek, turistlarga xizmat ko'rsatishga mo'ljallangan axborot markazlarini ("Visitor center") tashkil

qilishning takomillashgan tartibini joriy etish O‘zbekiston gidrom turizm resurslari salohiyatidan to‘liq foydalanishga asos bo‘ladi. Shu bilan birga, milliy turizm tarmog‘ining raqobat ustunliklarini rivojlantirishga ko‘maklashuvchi investitsion loyihalar muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.




4-rasm. Milliy turizm tarmog‘ining infratuzilma obyektlariga investorlarni jalb etishga qaratilgan “Investor show room” va turistlarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan axborot markazlarini tashkil qilish modeli¹⁶

Hudud turizm kompleksi salohiyatini to‘liq yuzaga chiqarishga innovatsion yondashuvni qaror toptirish lozim. Surxondaryo viloyatining Boysun-Sherobod, Termiz, Sariosiyo-Denov marshrutida “Oltin uchburchak” (“Golden Triangle”) turizm sxemasini ishlab chiqish maqsadga muvofiq. Transport infratuzilmasi va turizm resurslarining bir-birini to‘ldirishi nuqtai nazaridan Boysun-Sherobod, Termiz, Sariosiyo-Denov marshruti jozibali turizm sxemasini tashkil etadi. Shularni hisobga olib, milliy turizm tarmog‘ida hudud salohiyatini to‘liq yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan “Oltin uchburchak” turizm sxemasini amalga oshirish mexanizmi taklif etilmoqda (5-rasm).

Mazkur turizm sxemasining, aynan, “Oltin uchburchak” (“Golden Triangle”) turizm sxemasi, deb atalashining taklif etilish sababi shundaki, alohida turizm

¹⁶ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

destinatsiyasi sifatida Boysun-Sherobod tumanlari, Termiz shahri, Sariosiyo-Denov tumanlari ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-etnografik rivojlanishda o‘ziga xos xususiyatlarga ega.



5-rasm. Turizm tarmog‘ida hudud salohiyatini yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan “Oltin uchburchak” turizm sxemasini amalga oshirish mexanizmi¹⁷

Milliy turizm tarmog‘ida hudud salohiyatini to‘liq yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan “Oltin uchburchak” turizm sxemasini amalga oshirish mexanizmining o‘zagini koordinatsion konsilium tashkil etadi. “Oltin uchburchak” turizm sxemasining koordinatsion konsiliumi Jamoatchilik maslahat organi sifatida nafaqat hudud iqtisodiy kompleksini boshqarishga mas’ul ma’muriy xodimlar, balki iqtisodchi, geograf va etnograf olimlar, turizm biznesi subyektlarining top-menejerlari va ommaviy axborot vositalari vakillari singari jamoatchilik faollarini o‘z atrofida birlashtiradi. O‘z navbatida, turistik biznes subyektlari faoliyatini ekspert baholash, buning natijasiga ko‘ra yuqori samaradorlik indikatorlariga ega turoperatorlarga differensial yondashuv asosida iqtisodiy preferensiyalar taqdim qilish maqsadga muvofiq.

“Oltin uchburchak” turizm sxemasi muvaffaqiyatli amal qilishini ta’minlashning asosiy ustunlari hududiy transport infratuzilmasi, joylashtirish vositalari tarmog‘i, ommaviy tadbirlarni o‘tkazish maskanlari hisoblanadi. Turizm sxemasi targ‘ibot kampaniyasini tizimli yo‘lga qo‘yish, namoyish punktlariga tashriflarni nazarda tutgan ekskursiya dasturlari bazasini ishlab chiqish, zamonaviy infratuzilma obyektlarini shakllantirish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonlar davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga

¹⁷ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

tayangan holda tashkil etiladi. Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyatining Boysun-Sherobod, Termiz, Sariosiyo-Denov marshrutida “Oltin uchburchak” (“Golden Triangle”) turizm sxemasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish hududiy turizm kompleksining jadal rivojlanishiga turtki beradi.

Yuqorida keltirilgan tahliliy yondashuvlarga tayangan holda, milliy turizm tarmog‘ini o‘rta istiqbolda rivojlantirishning muqobil strategiyasi 2024-, 2025- va 2026-yillarga mo‘ljallangan amaliy chora-tadbirlarning asosiy yo‘nalishlaridan tarkib topgan. O‘rta istiqbolning dastlabki yilida ro‘yobga chiqarilishi zarur bo‘lgan amaliy chora-tadbirlar milliy turizm tarmog‘i infratuzilmasini rivojlantirish, ichki turizm destinatsiyalarini o‘zaro bog‘lovchi transport qatnovlari qamrovini kengaytirish, madaniy-ko‘ngilochar muassasalar faoliyatini turistlar tashrifi bilan integratsiyalash yo‘nalishlarini o‘z ichiga oladi.

O‘z o‘rnida, milliy turizm tarmog‘i infratuzilmasini rivojlantirish turizm infratuzilmasi obyektlari milliy reestirini tuzish, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish dasturini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Ichki turizm destinatsiyalarini o‘zaro bog‘lovchi transport qatnovlarining optimal sxemasini tasdiqlash ichki turizm destinatsiyalarini o‘zaro bog‘lovchi transport qatnovlari qamrovi kengaytiriladi. Madaniy-ko‘ngilochar muassasalar faoliyatini turistlar tashrifi bilan integratsiyalash madaniy-ko‘ngilochar muassasalarda animatorlik dasturlari reja-grafigini ishlab chiqishni talab etadi (6-jadval).

O‘rta istiqbolning ikkinchi yilida ro‘yobga chiqarilishi zarur bo‘lgan amaliy chora-tadbirlar, asosan, sayohat maqsadlari tasnifiga ko‘ra lokomotiv yo‘nalishlar safini to‘ldirish, an’anaviy turizm attraksiyasi markazlariga rekreatsion yuklamani optimal darajada saqlash, turmarshrutlarni fitom, litom, gidrom va antronom resurslar kesimida guruhlashni ko‘zda tutadi. Sayohat maqsadlari tasnifiga ko‘ra lokomotiv hisoblangan tarixiy-madaniy va ziyorat turizmi yo‘nalishlari safini to‘ldirish vazifasi eko-, agro-, speleo-, etnografik, gastronomik, ekstremal turizmni rivojlantirish dasturlarini tayyorlashni taqozo etadi. An’anaviy turizm attraksiyasi markazlariga rekreatsion yuklamani optimal darajada saqlash Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga ortiqcha rekreatsion bosimni bartaraf etish rejasini ishlab chiqish evaziga ro‘yobga chiqadi. Turmarshrutlarni fitom, litom, gidrom va antronom resurslar kesimida guruhlash talabi esa turmarshrutlar milliy klassifikatorini tasdiqlash asosida bajariladi.

O‘rta istiqbolning so‘nggi – uchinchi yiliga mo‘ljallangan amaliy chora-tadbirlar milliy turizm tarmog‘ining targ‘ibot kampaniyasini targeting tamoyillari bilan moslashtirish, milliy turizm tarmog‘ida servis personalini tayyorlashning takomillashgan modelini yaratish, kirish turizmini rag‘batlantirish orqali xizmatlar eksporti geografiyasini kengaytirish vazifalarini o‘zida mujassamlashtiradi.

**Milliy turizm tarmog'ini o'rta istiqbolda rivojlantirishning
muqobil strategiyasi¹⁸**

№	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish shakli	Mas'ul ijrochilar
I. 2024-yilga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlari			
1.1.	Milliy turizm tarmog'i infratuzilmasini rivojlantirish	Turizm infratuzilmasi obyektlari milliy reestirini tuzish. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb yeish dasturini shakllantirish	O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, viloyatlar hokimliklari
1.2.	Ichki turizm destinatsiyalarini o'zaro bog'lovchi transport qatnovlari qamrovini kengaytirish	Ichki turizm destinatsiyalarini o'zaro bog'lovchi transport qatnovlarining optimal sxemasini tasdiqlash	Transport vazirligi, viloyatlar hokimliklari
1.3.	Madaniy-ko'ngilochar muassasalar faoliyatini turistlar tashrifi bilan integratsiyalash	Madaniy-ko'ngilochar muassasalarda animatorlik dasturlari reja-grafigini ishlab chiqish	O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi
II. 2025-yilga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlari			
2.1.	Sayohat maqsadlari tasnifiga ko'ra lokomotiv yo'nalishlar safini to'ldirish	Eko-, agro-, speleo-, etnografik, gastronomik, ekstremal turizmni rivojlantirish dasturlarini tayyorlash	O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi
2.2.	An'anaviy turizm attraksiyasi markazlariga rekreatsion yuklamani optimal darajada saqlash	Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlariga ortiqcha rekreatsion bosimni bartaraf etish rejasini ishlab chiqish	O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, viloyatlar hokimliklari
2.3.	Turmarshrutlarni fitom, litom, gidrom va antronom resurslar kesimida guruhlash	Turmarshrutlar milliy klassifikatorini tasdiqlash	Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi
III. 2026-yilga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlarning asosiy yo'nalishlari			
3.1.	Milliy turizm tarmog'ining targ'ibot kampaniyasini targeting tamoyillari bilan moslashtirish	Milliy turizm tarmog'i targ'ibot kampaniyasining targeting mexanizmini ishlab chiqish	O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi huzuridagi Milliy PR-markazi
3.2.	Milliy turizm tarmog'ida servis personalini tayyorlashning takomillashgan modelini yaratish	Servis personalini tayyorlashning takomillashgan modelini joriy etish strategiyasini qabul qilish	Turizmni rivojlantirish va madaniy meros muammolarini o'rganish instituti
3.3.	Kirish turizmini rag'batlantirish orqali xizmatlar eksporti geografiyasini kengaytirish	Turizm xizmatlari eksporti geografiyasini kengaytirish-ning har bir qit'a uchun alohida "yo'l xaritasi"ni tayyorlash	O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi, viloyatlar hokimliklari

¹⁸ Muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Qayd etish joizki, milliy turizm tarmog'ining targ'ibot kampaniyasini targeting tamoyillari bilan moslashtirish shu yo'nalishda aniq tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqish jarayoni bilan birga kechadi. Milliy turizm tarmog'ida servis personalini tayyorlashning takomillashgan modelini yaratish maqsadidan kelib chiquvchi masalalar servis personalini tayyorlashning takomillashgan modelini joriy qilish strategiyasini qabul qilish orqali ijro etiladi.

Kirish turizmini rag'batlantirish orqali xizmatlar eksporti geografiyasini kengaytirish turizm xizmatlari eksportini rag'batlantirishning har bir qit'a uchun alohida "yo'l xaritasi"ni tayyorlashni nazarda tutadi. Keltirib o'tilgan o'rta istiqbolga mo'ljallangan amaliy chora-tadbirlarning bajarilishiga Madaniyat va turizm vazirligi, vazirlik huzuridagi Milliy PR-markazi, Turizmni rivojlantirish va madaniy meros muammolarini o'rganish instituti, Transport vazirligi, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi, viloyatlar hokimliklari mas'ul bo'ladi.

Yillar kesimida taqsimlangan chora-tadbirlarning o'z vaqtida ijro etilishi kelgusida milliy turizm tarmog'ining global xizmatlar bozoridagi raqobat ustunliklari rivojlanishiga zamin yaratadi. Bunda milliy turizm tarmog'ini o'rta istiqbolda rivojlantirish konsepsiyasi ijrosini monitoring qilishda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati huzurida maxsus jamoatchilik komissiyasini ta'sis etish maqsadga muvofiq.

XULOSA

Milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalarini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini rivojlantirishga oid terminologik apparat mualliflik yondashuvlariga tayangan holda takomillashtirilgan. Xususan, milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklari deganda mamlakat yoki uning muayyan hududining, turizm korxonasining tanlangan bozor segmentida faoliyat yurituvchi biznes subyektlari orasida keskin ajralib turuvchi noyob xususiyatlari jamlanmasi tushunilishi asoslangan.

2. Milliy turizm tarmog'ida raqobat muhitini tashkil etuvchi elementlar aniqlashtirilgan. Jumladan, turizm tarmog'ida raqobat muhitini tashkil etuvchi elementlarning o'zaro aloqadorligi tadqiq etilgan. Bunda raqobatni tartibga solishda davlatning muvofiqlashtiruvchi sifatidagi vazifasi yoritib berilgan.

3. Qishloq va etnografik turlar (an'anaviy turmush tarzi, hunarmandchilik, milliy taomlar tayyorlash texnologiyasi) doirasida sayyohlarni qabul qilish istagi va imkoniyatiga ega fermerlar uchun namunaviy "turizm mahallasi" tipidagi uy-joy komplekslari qurish orqali milliy turizm tarmog'i salohiyatidan foydalanishni kengaytirish taklifi asoslangan. Buning natijasida

O‘zbekistonning sharqiy va shimoliy mintaqalarida mehmondo‘stlik an‘analariga mos yangi obyektlar vujudga kelish imkoniyatlari ochib berilgan.

4. Kirish turizmi yo‘nalishlarini diversifikatsiyalash maqsadida yoshlar faol dam olish zonasini tashkil etish bo‘yicha boshqaruv tuzilmasi ilmiy jihatdan asoslangan. Taklif etilgan boshqaruv tuzilmasiga ko‘ra resurs salohiyati mavjud hududlarda yoshlar turizmi oqimiga xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi shakllanadi.

5. Mamlakatimizda milliy turizm tarmog‘ini rivojlantirishning ilmiy-amaliy masalalari chuqur tadqiq qilingan. Jumladan, transport logistikasini rivojlantirish, tashqi va ichki yo‘nalishlarni kengaytirishni nazarda tutgan holda yo‘lovchilar tashish sohasida O‘zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqaviy transport “xabi”ga aylantirishni ta‘minlash taklifi asoslab berilgan. Bu taklifdan foydalanish xalqaro parvozlar bo‘yicha O‘zbekistonning tarixiy shaharlariga reyslarning geografiasini kengaytirishga xizmat qilgan.

6. Raqobatbardosh turizm mahsulotlari , xususan, hududlarda tematik turizm zonalarini yaratish orqali turizmning istiqbolli turlari (ekologik, etnografik, gastronomik, sport, sog‘lomlashtirish, industrial, ishbilarmonlik)ni barqaror rivojlantirishning tashkiliy mexanizmi takomillashtirilgan. Bu taklifdan foydalanish turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish orqali mavsumiy omillar ta‘sirini kamaytirish imkonini bergan.

7. Turistlar oqimini yo‘naltiruvchi tashqi bozorlarda milliy turizm mahsulotini ilgari surish bo‘yicha strategiyani ishlab chiqish uslubiyoti pozitsiyalashga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan. Bu taklifdan foydalanish natijasida turistlar oqimini yo‘naltiruvchi tashqi bozorlarda milliy turizm mahsulotini ilgari surish bo‘yicha strategiyalar global trendlar ta‘sirini e‘tiborga olgan holda takomillashtirilgan.

8. Milliy turizm tarmog‘ini kelgusida rivojlantirish strategik missiyasining SMART-tahlili amalga oshirilgan. Milliy turizm tarmog‘ini kelgusida rivojlantirish strategik missiyasini belgilab olishning SMART-tahlili konyunkturaviy bozor vaziyatiga obyektiv baho berishning muqobil metodlaridan biri ekanligi asoslangan.

9. Rekreatsion ko‘llar hududida ishbilarmonlik tadbirlarini (MICE tourism) o‘tkazishga mo‘ljallangan kongress-xoll, rekreatsiya va dam olish maskanlariga investorlarni jalb etishga qaratilgan “Investor show room”, shuningdek, turistlarga xizmat ko‘rsatishga mo‘ljallangan axborot markazlarini (“Visitor center”) tashkil etish tartibi ishlab chiqilgan. Bu taklifdan foydalanish natijasida rekreatsion ko‘llar hududini potensial turistlar guruhlarini o‘rtasida targ‘ib etish bo‘yicha targeting strategiyasini olib borish mexanizmi takomillashtirilgan.

10. Turizm resurslaridan optimal foydalanish va turizm sohasida hudud salohiyatini yuzaga chiqarishga yo‘naltirilgan Surxondaryo viloyatida “Oltin uchburchak” turizm sxemasini amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmi

takomillashtirilgan. Bu taklifdan foydalanish milliy turizm tarmog'ida hududlar ulushini mutanosib taqsimlashga asos bo'lgan.

Taklif qilingan ilmiy-amaliy tavsiyalar milliy turizm tarmog'ining raqobat ustunliklarini rivojlantirish yo'nalishlari va strategiyalarini takomillashtirish uchun yagona tizimni shakllantirib, mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga qaratilgan 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasidagi ustuvor vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ НА ОСНОВЕ НАУЧНОГО
СОВЕТА DSc.03/10.12.2019.I.16.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ
СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ
ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

ХАЛИЛОВ СИРОЖИДДИН ШЕРАЛИ УГЛИ

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ НАПРАВЛЕНИЙ И СТРАТЕГИЙ РАЗВИТИЯ
КОНКУРЕНТНЫХ ПРЕИМУЩЕСТВ НАЦИОНАЛЬНОГО
ТУРИСТСКОГО СЕКТОРА**

08.00.17 – Туризм и гостиничная деятельность

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора экономических наук (DSc)

Ташкент – 2024

Тема докторской диссертации (Doctor of Science) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией при Кабинете Министров Республики Узбекистан за № В2022.2.DSc/Iqt401.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.tsue.uz) и информационно-образовательного портала «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный консультант: **Пардаев Мамаюнус Каршибоевич**
доктор экономических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Сафаров Баходирхон Шахриёрович**
доктор экономических наук, профессор

Ибрагимов Нутфилло Салимович
доктор экономических наук, профессор

Астанакулов Олим Таштемирович
доктор экономических наук, профессор

Ведущая организация: **Андижанский государственный университет**

Защита диссертации состоится «__» _____ 2024 года в __:__ ч. на заседании разового Научного совета на основе научного совета DSc.03/10.12.2019.I.16.01 по присуждению ученых степеней при Ташкентском государственном экономическом университете. Адрес: 100003, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел: (99871) 239-28-72, Факс: (99871) 239-43-51,

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета (регистрационный № ____). Адрес: 100003, г.Ташкент, ул. Ислама Каримова, 49. Тел: (0371) 239-28-72, Факс: (0371) 239-43-51, e-mail: tdiu@tsue.uz.

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2024 года.
(протокол реестра № ____ от «__» _____ 2024 года.

М.П. Эшов

Председатель разового Научного совета на основе Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

У.В. Гафуров

Ученый секретарь разового Научного совета на основе Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

А.А. Эштаев

Председатель научного семинара при разовом Научном совете на основе Научного совета по присуждению ученых степеней, д.э.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В системе мирохозяйственных отношений туризм составляет значительную часть доходов ведущих стран мира. Национальная туристическая сеть имеет актуальное социально-экономическое значение как стимулирующая сила создания новых рабочих мест. «Сегодня почти 10 % мирового ВВП, 9 % занятости, 7 % общего экспорта и 30 % экспорта услуг приходится на сектор туризма»¹. Эти цифры указывают на важную роль туризма в экономическом развитии. Перспективы туристической сети высоко оцениваются как одно из альтернативных направлений последовательного улучшения социально-экономического благосостояния населения стран мира.

Тот факт, что услуги, созданные в туристической отрасли, в мировом экономическом комплексе заняли пятое место после экспорта топливной, химической, пищевой и автомобильной промышленности, свидетельствует о том, что они оказывают существенное влияние на темпы экономического развития. Зарубежные страны стали уделять серьезное внимание регулярному увеличению объемов экспорта туристических услуг на основе диверсификации своих национальных туристических продуктов. В научно-практических исследованиях, проводимых в сфере туризма, мировые ученые уделяют особое внимание методологическим основам этих вопросов, маркетинговым стратегиям и аспектам управления инвестициями. Вопросы совершенствования направлений и стратегии развития конкурентных преимуществ национальной туристической сети также отражены в научных трудах зарубежных исследователей.

В Узбекистане уделяется внимание поддержке национальной туристической сети дестинациями, совершенствованию услуг, создаваемых в туристической сети на основе инновационных технологий, повышению ее эффективности как одному из приоритетных направлений государственной политики. В Послании Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису отмечено: «...необходимо довести количество иностранных туристов, посещающих нашу страну, до 7 миллионов, а ежегодные доходы от туристического экспорта – до 2 миллиардов долларов ...»². Реализация указанных практических задач показывает необходимость проведения совершенных научных исследований, создающих основу для подготовки программ по тем же вопросам в целях развития национальной туристической сети последовательными темпами, разработки важных направлений реализации конкурентоспособных стратегии. Благодаря этому тема определения алгоритма совершенствования направлений и стратегии развития конкурентных преимуществ национальной туристической сети указывает на то, что она является одним из актуальных научных направлений.

Результаты диссертационного исследования в определенной степени послужат реализации задач, намеченных в указах Президента Республики

¹ UNWTO. Tourism Highlights: 2022 Edition, p. 3 // <http://www.unwto.org>

² Послание Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису // Народное слово, 2020 г. 29 декабря.

Узбекистан № УП-4861 «О мерах по обеспечению опережающего развития туристической сферы Республики Узбекистан» от 2 декабря 2016 года, №УП-5326 «О дополнительных организационных мерах по созданию благоприятных условий для развития туристского потенциала Республики Узбекистан» от 3 февраля 2018 года, № УП-5611 «О дополнительных мерах по опережающему развитию туризма в Республике Узбекистан от 5 января 2019 года, постановлении № ПП-3509 от 6 февраля 2018 года «О мерах по развитию въездного туризма» и других нормативно-правовых документах, связанных с этой сферой.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Духовно-нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации³. Научные исследования, направленные на совершенствование направлений и стратегий развития конкурентных преимуществ национальной туристической отрасли, проводятся ведущими мировыми научными центрами и высшими учебными заведениями, в том числе в Стэнфордском университете, Принстонском университете, Гарвардском университете (США), Кембриджском университете (Великобритания), Университете Лас-Пальмас-де-Гран-Канария (Испания), Университете Мюнстера (Германия), Корейском институте развития (Южная Корея), Университете Таилорс (Малайзия), Университете Гази (Турция), Ташкентском филиале Российского экономического университета им. имени Г.В.Плеханова, Ташкентском государственном экономическом университете, Самаркандском государственном университете, Самаркандском институте экономики и сервиса, Бухарском государственном университете, Ургенчском государственном университете.

